

B.K. TUXLIEV, A.T. AGZAMOV

# SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

336.2(09)

T83

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

B.K. TUXLIYEV, A.T. AGZAMOV

# SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

(Kredit-modul bo'yicha)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi  
Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan 5230100 – «Iqtisodiyot (tarmoqlar  
va sohalar bo'yicha)», 5231200 – «Sug'urta ishi», 5231900 – «Korporativ  
boshqaruv», 5233600 – «Savdo ishi (turlari bo'yicha)», 5230600 – «Moliya  
va moliyaviy texnologiyalar», 5231300 – «Budjet nazorati va g'aznachiligi»  
va 5232500 – «Logistika (yo'nalishlar bo'yicha)» bakalavriat ta'lif  
yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya  
etilgan.



TOSHKENT – 2022

UO'K: 332.144.

KBK 67.408.12

T 88

B.K.Tuxliyev, A.T.Agzamov. *Soliqlar va soliqqa tortish. (Darslik)*

– T: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. – 468 bet.

ISBN 978-9943-8913-5-7

Mazkur darslikda soliqlarning iqtisodiy mohiyati, soliq tizimi va soliq siyosati, iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida olib borilayotgan hamda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish, xo'jalik yurituvchi subyektlar to'ladigan boshqa majburiy to'lovlarini hisoblash va to'lash tartiblari kabi masalalar o'z aksini topgan.

Darslik oliv ta'limganing 200000 – «Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq» bilim sohasining 230000 – «Iqtisod» ta'lim sohasidagi 5230100 – «Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)», 5231200 – «Sug'urta ishi», 5231900 – «Korporativ boshqaruv», 5233600 – «Savdo ishi (turlari bo'yicha)», 5230600 – «Moliya va moliyaviy texnologiyalar», 5231300 – «Budget nazorati va g'aznachiligi» va 5232500 – «Logistika (yo'nalishlari bo'yicha)» bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari va iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari oliv o'quv yurtlarining bakalavrilar, magistrilar, davlat soliq xizmati organlari, moliya va bank xodimlari, buxgalterlar, auditorlar, professor-o'qituvchilar va ilmiy-tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

UO'K: 332.144.

KBK 67.408.12

### Mas'ul muharrir

M.P. Eshov – *i.f.d., professor*

### Taqribchilar:

M.I. Almardonov – *TDIU "Soliqlar va sug'urta ishi" kafedrasi professori, i.f.d.;*

M.S. Usmanova – *TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi;*

R. Raimov – *Toshkent viloyati Davlat Soliq boshqarmasi boshlig'i.*

ISBN 978-9943-8913-5-7

© "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022.

## KIRISH

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, iqtisodiy islohotlar yo‘lini tanlaganidan so‘ng, oldimizda mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, boshqa bozor iqtisodiyotiga o‘tishdek murakkab jarayonni boshidan kechirgan rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalaridan kelib chiqqan holda mohiyatan yangi soliq tizimini vujudga keltirish vazifasi turar edi.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillardan boshlab mamlakatimizda mustaqil soliq siyosati ishlab chiqildi, uning taktika va strategiyasi aniqlanib, izchil takomillashtirilib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan milliy soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildiki, uning asosiy maqsadi soliq to‘lovchilar va davlat budgeti manfaatlari o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlikni ta‘minlashga qaratilgan. Bunday uyg‘unlikni ta‘minlashning eng muhim vositalaridan biri soliq yukini optimal belgilash va shu tariqa davlat budgetini kerakli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash bilan birga, soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatları ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etmasligiga erishishdan iborat.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning bir qancha dastaklari qatorida respublikamizning soliq mexanizmi oldiga bir tomonidan davlat budgetini zarur daromadlar bilan ta‘minlash, ikkinchi tomonidan esa, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag‘batlantirish vazifasi qo‘ylgan. Bu vazifalarni bajarish uchun soliq tizimida iqtisodiy islohotlar olib borish bilan soliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolini oshirish, ularni budget tizimiga barqaror tushishini ta‘minlashda

soliqlarni undirish usullarini qo'llash mexanizmini takomillashtirish, soliq undirishni optimallashtirish, soliq qarzlarini kamaytirish va qolaversa, soliq to'lovchilardan soliq yukini yengillashtirishni talab etadi.

Keyingi yillarda Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish tartibini soddalashtirish va soliq qonunchiligini takomillashtirishga asosiy e'tibor berilmoqda. Eng avvalo, ular ishlab chiqarishni, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, aholining real daromadlarini va iste'mol talablarini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, soliqlar va to'lovlarni birxillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa soliqqa tortish mexanizmlarining oshkoraliqiga, soliqlarni hisoblash va to'lashiga oid korxonalar faoliyatini soddalashtirishga, shuningdek, soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi. Ayni paytda bu hol respublikamizda qo'llaniladigan soliq tizimini xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiqlashtirish zarurati bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlarga to'xtalib, 2018-yilgi soliq tizimini isloh qilish bo'yicha quyidagilarni aytib o'tgan edilar: "2018-yilda soliq siyosatini amalga oshirishda keskin chora-tadbirlardan voz kechamiz. Chunki islohotlar davrida davlat tizimining uzlusiz faoliyat ko'rsatishi uchun budget barqarorligi suv bilan havodek zarur... eng muhimi soliq tizimi uzoq muddat davomida aniq va tushunarli bo'lishi kerak, soliq tizimida puxta o'ylangan uzoq muddatga mo'ljallangan siyosatni amalga oshirish lozim»<sup>1</sup>.

Prezidentimizning ushbu fikrlarida soliq siyosati budget barqarorligini ta'minlash bilan birga soliq to'lovchilar uchun sodda va qulay bo'lgan soliq tizimini shakllantirishga yo'naltirilishi lozimligiga alohida urg'u berib o'tmoqda.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasi. Toshkent shahri, 22-dekabr, 2017-yil.

O‘zbekiston Respublikasida 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlarda “Soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddallashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatichilagini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish» ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olingen<sup>2</sup>. Shuningdek, “Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish» bo‘yicha islohotlarni Harakatlar strategiyasida yana bir ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olingen.

Yuqoridagi ustuvor yo‘nalishlar asosida O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi qabul qilingan bo‘lib, ushbu konsepsiya «... soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to‘lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to‘lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi»<sup>3</sup> e’tirof etilgan. Natijada, 2019-yildan ish haqi fondidan ko‘p bosqichli soliqqa tortish tizimini qisqartirish va yangi tartibni kiritish bilan bog‘liq islohotlarning amalga oshirilishi, shuningdek “fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak»<sup>4</sup> ligi ko‘zda tutilgan edi.

Shuningdek “Yaqinda qabul qilingan yangi Soliq kodeksiga muvofiq, bu yildan boshlab ko‘plab yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi....

... Soliq kodeksi normalarini har bir soliq xodimi, tadbirkorlar va soliq to‘lovchilar puxta o‘zlashtirishi, buning uchun ularni

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni Toshkent sh., 2017-yil 7-fevral, 1-ilova.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida»gi PF-5468-son Farmoni. Toshkent shahri, 2018-yil 29-iyun.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo‘llagan Murojaatnomasi. Toshkent shahri, 28-dekabr, 2018-yil.

muntazam ravishda o‘qitish zarur»<sup>5</sup>ligi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan alohida ta‘kidlandi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida oliv ta’lim muassasasi talabalarining soliqlarning iqtisodiy mohiyati, obyektiv zarurligi, soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibi, soliq to‘lovchilardan undiriladigan umum davlat va mahalliy soliqlarning iqtisodiy mohiyati va soliq tizimidagi ahamiyati, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib, ularning bilimlarini chuqurlashtirish, «Soliqlar va soliqqa tortish» fani bo‘yicha nazariy va amaliy bilim ko‘nikmalarini hosil qilish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Soliqlar va soliq munosabatlari, soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar)ni soliqqa tortish masalalari mumtoz iqtisodchi olimlardan T.Gobbs, A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, N.Turgenev, D.Yum, A.Laffer, Lorens hamda hozirgi zamon iqtisodchi olimlaridan R.Kempbell, K.Makkonel, V.Terdoxlebov, S.Fisher, A.Voznesenskiy, V.Gluxov, E.Teyt, E.Glazova, T.Yutkina, N.Milyakov, D.Cherniklarning ilmiy izlanishlari va asarlarida bevosita yoki bilvosita yoritilgan. Bundan tashqari respublikasimiz iqtisodchi olimlaridan I.Karimov, Q.Yahyoyev, M.Sharifxo‘jayev, S.G‘ulomov, A.Vahobov, T.Malikov, E.Gadoyev, O.Olimjonov, M.Alimardonov, A.Jo‘rayev, B.Toshmurodova, N.Qo‘ziyeva, F.Shamsutdinov, I.Zavalishina, Sh.Toshmatov, B.Tuxliyev, S.Xudoyqulov asarlarida fikr yuritilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani yaratish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan iqtisodchi olimlarning soliqlar va soliqqa tortish bo‘yicha olib borgan ilmiy ishlaridan foydalanildi. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo‘llagan Murojaatnomasi. Toshkent shahri, 24 yanvar, 2020-yil.

qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va internet tarmog'i (soliq.uz, hisobot.uz, fm.uz, fmc.uz) ma'lumotlaridan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi hisobot materiallaridan foydalanildi.

Darslikning ayrim paragraflarini tayyorlashda ustozlarimiz – professorlar M.Almardonov, A.Jo'rayev, S.Xudoyqulov, shuningdek, hamkasbimiz – dotsent Q.To'qsonovlar ishtirok etishgan.

# **I BO'LIM. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI, SOLIQ TIZIMI VA SIYOSATI**

## **I BOB. "SOLIQLAR VA SOLIQQQA TORTISH» FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA UNI O'RGANISH USULLARI**

### **1.1. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani alohida iqtisodiy fan sifatida**

Soliqlar har bir davlatning muhim iqtisodiy tayanchi bo'lib, davlat tomonidan yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar)dan hamda jismoniy shaxslar (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chetel fuqarolari va fuqaroligibо'Imaganlar) dan undiriladigan majburiy to'lovdir. Shuningdek, soliqlar majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan davlat o'rtasida bo'ladigan munosabatlar hisoblanadi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani soliqlarning iqtisodiy mohiyati, obyektiv zarurligi, funksiyalari, vazifalari, soliq tizimining tarkibiy tuzilishi, soliq turlari, soliq imtiyozlari, soliq mexanizmi, soliq stavkalari, soliqlarni hisoblash va budgetga to'lash tartibi, soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda tamoyillarini o'rganishdagi eng asosiy fan hisoblanadi. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani iqtisodiyotning turli sohalariga, jumladan buxgalteriya, bank muassasalariga, soliq organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o'qitishdan maqsad talabalarni O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi bilan

yaqindan tanishtirib, ularning iqtisodiy bilimlarini chuqurlashtirish, fan bo'yicha nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgandir.

Fanning oldiga qo'ygan maqsadlaridan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlarni hisoblash, budgetga to'lash tartiblarini, xorijiy mamlakatlar soliq tizimlaridagi ilg'ortajribalarni, soliq imtiyozlari, ularni qo'llash, soliqlar bo'yicha hisobotlarni soliq organlariga taqdim etish tartiblarini va buxgalteriya hisobida aks ettirilishini o'rganish vazifalarini amalga oshirish belgilab olindi.

Hozirgi kunda har bir fanni o'rganishda uni talabalarga to'liq yetkazish, talabalarni fikrlashga undash va jalg etish, shu orqali yetuk mutaxassislarni tayyorlash maqsadi yotadi. Fanni o'rganishda hozirgi davrning ilg'or uslublaridan va o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti – bu soliq to'lovchilarining soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarining iqtisodiy mohiyati, davlat budgeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, soliq tizimi va siyosati, soliq turlarlari bo'yicha belgilangan imtiyozlar tizimi, soliqlarni hisoblash mexanizmining amaldagi holatini o'rganishdan iborat. Jumladan, soliq to'lovchilar, davlat budgeti, majburiy to'lovlar, moliyaviy munosabatlар kabi elementlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining uslubiy jihatlari, qirralari keng ko'lamda o'rganiladi.

## **1.2. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o'rganishdagi mayjud usullar**

Har bir fanning shakllanishi fan predmeti shakllanishi bilan birgalikda, uning ilmiy bilish usullari qaror topishi bilan ham bog'liq. Har qanday fanni o'rganishdagi usullar umumiyl tavsifga ega, lekin har bir fan o'z predmetidan kelib chiqib, o'zining ilmiy

bilish usullariga ega. Shuning uchun fanni o'rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo'linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o'rganishning birdan-bir to'g'ri ilmiy usuli dialektik usuldir. Shuning uchun ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko'rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo'ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduksiya usullarini o'z ichiga oladi.

Induksiya – xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinishi hisoblanadi. Deduksiya esa, avval boshdanoq barcha xususiy hollarni o'z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinishi hisoblanadi.

Shu bilan birga barcha iqtisodiy fanlar kabi «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining ham o'ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tibor qaratiladi va xalal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta'siri e'tiborga olinmaydi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani shuningdek, o'z predmetini o'rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil – o'rganilayotgan butun obyektni qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish bo'lsa, sintez esa o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Amaldagi soliq turlarini hisoblash va budgetga undirish tartiblarining amaliy masalalari mazkur yo'il bilan o'rganiladi.

Fanni o'rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holda tahlilni qo'shib olib borish muhim o'rinn tutadi. Soliqlarni hisoblash va budjetga to'lashning amaldagi masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o'rganishda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar nuqtaiy nazaridan, ular bilan davlat budjeti o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya'ni soliqlar va soliq munosabatlariga doir masalalar makroiqtisodiy darajada o'rganiladi.

Shuningdek, fanni o'rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullardan ham foydalaniladi. Jumladan, soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulda tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o'zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta'sirini yuqoridagi usullar bilan ifodalash mumkin.

Fanni o'rganishda taqqoslash, statistik va grafik usullardan keng foydalanilgan holda ularning har biri o'ziga xos yo'nalishlarni aks ettirib, biri soliq tushumlarini jadval orqali, biri davrlar bo'yicha taqqoslash, biri esa o'zgarishlarni grafik usulda o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Biz bu fanni o'rganishda bu usullardan keng ko'lamda foydalanishimiz uchun eng ahamiyatlisini tanlab olishimiz lozim bo'ladi.

### **1.3. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqasi**

Soliqlar va soliq munosabatlariga doir bilimlarni o'rganishda bir qator iqtisodiy fanlarni ham o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Barcha iqtisodiy fanlar bir-birini to'ldirib boradi va o'rganish uslublarini osonlashtiradi. Ayniqsa, oliy ta'lim

muassasalarining 5230100 – «Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)», 5231200 – «Sug‘urta ishi», 5231900 – «Korporativ boshqaruv», 5233600 – «Savdo ishi (turlari bo‘yicha)», 5230600 – «Moliya va moliyaviy texnologiyalar», 5231300 – «Budget nazorati va g‘aznachiligi» va 5232500 – «Logistika» ta‘lim yo‘nalishi talabaları “Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o‘rganishda «Iqtisodiyot nazariyası», «Moliya», «Moliyaviy va boshqaruv hisobi», «Audit», «Budget hisobi», «Banklarda buxgalteriya hisobi» va «Pul, kredit va banklar» kabi iqtisodiy fanlar bilan birgalikda o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani «Iqtisodiyot nazariyası» fani bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning maxsus kengaytirilgan bo‘limidir. Chunki soliqlar va soliq munosabatlarining qonuniyatları umumiqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqmasdan, ularga asoslanadi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani «Soliq tarixi va nazariyası» fani bilan ham o‘zaro aloqadorlikda o‘rganiladi. «Soliq tarixi va nazariyası» fani soliqlar va soliq munosabatlarining nazariy asoslarini o‘rgansa, «Soliqlar va soliqqa tortish» fanida esa soliqlarni hisoblash va budgetga to‘lash mexanizmidagi amaliy va uslubiy asoslar o‘rganiladi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani shuningdek, “Moliya” fani bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Chunki soliq to‘lovchilardan undiriladigan soliqlar moliya munosabatlarining tarkibiga kiradi. Shuning uchun moliya ham, soliqlar ham pul munosabatlarini ifodalaydi. Bu ikkala fan uchun yagona asos pul munosabatlarining mavjudligidir. Lekin yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar keyinchalik o‘ziga xos bo‘lgan pul munosabatlarini, ya’ni soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy pul munosabatlarini ifodalaydi.

Yuqoridagi pul munosabatlarining mavjudligidan kelib chiqib, «Soliqlar va soliqqa tortish» fani «Pul, kredit va banklar» kabi iqtisodiy fanlar bilan ham o‘zaro bog‘liq holda o‘rganiladi.

#### **1.4. Soliqlar va majburiy to‘lovlar tizimi hamda soliq to‘lovchilarni soliqqa tortishning huquqiy asoslari**

Davlat soliq xizmati organlari hamda bank xodimlari, buxgalterlar, auditorlar o‘zlariga soliq qonunchiligi hujjatlarida yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat nazariy jihatlarini o‘rganib qolmasdan, soliq to‘lovchilardan olinadigan soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi, umumiy asosga ega bo‘lgan soliq qonunchiligi tamoyillari, soliqlar va majburiy to‘lovlar tizimi, soliq to‘lovchilar to‘laydigan soliqlarning turlari va ularga soliq solish mexanizmini, soliq hisobi va hisobotini yuritish, tegishli tartibda topshirilishini, shuningdek, banklarda hamda buxgalterlar faoliyatida dasturiy mahsullar yordamida elektron hisobotlarni jo‘natishning amaldagi holatini mukammal egallagan bo‘lishlari lozim. Buning uchun esa, «Soliqlar va soliqqa tortish» fanini chuqr va mukammal o‘rganishlari kerak bo‘ladi.

Soliq to‘lovchilarni soliqqa tortishning huquqiy asoslari davlat mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab yaratila boshlangan. O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi qonunida O‘zbekiston Respublikasi bundan buyon o‘zining mustaqil moliya-soliq siyosati olib borilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Mamlakatimizda soliq to‘lovchilarni soliqqa tortishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga<sup>6</sup> asosan fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliq solish prinsiplari<sup>7</sup> keltirib o‘tilgan bo‘lib, ular qatorida belgilangan majburiylik prinsipiiga ko‘ra har bir shaxs

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 51-modda.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 7-modda.

Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig‘imlarni to‘lashi shart<sup>8</sup>.

O‘zbekiston Respublikasida amal qiladigan soliqlar va yig‘imlarning turlari O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida<sup>9</sup>, davlat boji turlari esa «Davlat boji to‘g‘risida»gi qonunida<sup>10</sup> belgilangan. Yig‘imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq kodeksi bilan birqalikda boshqa qonun hujjatlarida ham (masalan, bojxona yig‘imi Bojxona kodeksida) belgilanadi.

Jismoniy shaxslar qachonki, zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan taqdirda soliq to‘lovchi deb e’tirof etiladi. Qachonki, soliq solish obyekti (mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo‘lgan boshqa holat) mavjud bo‘lganda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari jismoniy shaxslarda soliq majburiyatini vujudga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga asosan yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lanadi. O‘z egaligida va foydalanishida hamda mulkida yer uchastkalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer uchun haq to‘laydilar. Yer uchun haq har yili to‘lanadigan yer solig‘i shaklida olinadi, uning miqdori yer uchastkasining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta‘minlanish darajasiga qarab belgilanadi<sup>11</sup>.

Mamlakatimizda yuz bergen iqtisodiy o‘zgarishlar, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatga o‘tib borilishi soliq qonunchiligidagi jiddiy o‘zgarishlar yuz berishiga sabab bo‘ldi. Mazkur o‘zgarishlar va islohotlarning barchasi 2019-yil 9-dekabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2019-yil

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 8-modda.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 17-modda.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat boji to‘g‘risida. 3-modda.

<sup>11</sup> Jismoniy shaxslar soliq ma’muriyatiligi: nazariya va amaliyat. DSQ huzuridagi Malaka oshirish markazi. 2020-yil.

14-dekabrda Senat tomonidan ma'qullangan, 2019-yil 30-dekabrdan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan tasdiqlangan va 2020-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida o'z ifodasini topgan<sup>12</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan, shuningdek, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 1997-yil 29-avgustdag'i "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, 2019-yil 9 dekabrdagi "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budgeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (O'RQ-589-son), 1998-yil 30-apreldagi "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (604-I-son), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida»gi PF-5468-sonli Farmoni, 2019-yil 30 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budgeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4555-sonli qarori, 2020-yil 30-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budgeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4938-sonli qarori, 2021-yil 30-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budgeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-73-sonli qarori, 2019-yil 28-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish

<sup>12</sup> "Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексига ўзгартиш ва кўшимчалар киритиш тўғрисида"ги ЎРҚ-599-сонли Конуни. 30.12.2019 й.

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
--------------	---

### I BO'LIM. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI, SOLIQ TIZIMI VA SIYOSATI

#### I BOB. "SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH" FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA UNI

O'RGANISH USULLARI .....	8
1.1. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani alohida iqtisodiy fan sifatida.....	8
1.2. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o'rganishdagi mavjud usullar .....	9
1.3. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqasi.....	11
1.4. Soliqlar va majburiy to'lovlar tizimi hamda soliq to'lovchilarni soliqqa tortishning huquqiy asoslari.....	13

Nazorat va muhokama uchun savollar .....	19
--	----

#### II BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI

VA SOLIQQA TORTISH TAMOYILLARI .....	21
--------------------------------------	----

2.1. Soliqlarning obyektiv zarurligi va o'ziga xos xususiyatlari .....	21
2.2. Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalari bilan o'zaro munosabati .....	25
2.3. Soliqlarning funksiyalari va vazifalari .....	27
2.4. Soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari.....	32
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	39

<b>III BOB. SOLIQ SIYOSATI VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI .....</b>	<b>44</b>
3.1. Soliq siyosati tushunchasi va huquqiy nazariy asoslari .....	44
3.2. Hozirgi davrda soliq siyosatini ishlab chiqish va unda davlatning roli .....	48
3.3. Soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish yo'nalishlari .....	52
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	57
<b>IX BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA UNING SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI .....</b>	<b>61</b>
4.1. Soliq tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati .....	61
4.2. Soliq tizimini guruhashning o'ziga xos jihatlari .....	63
4.3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bo'linishi .....	65
O'zbekiston Respublikasi hududida to'g'ri va egri soliqlar tarkibi .....	65
4.4. Soliqlarning budgetga tushishiga ko'ra bo'linishi .....	67
4.5. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.....	75
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	79

## II BO'LIM. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNING TURLARI

<b>V BOB. FOYDA SOLIG'I.....</b>	<b>82</b>
5.1. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar .....	82
5.2. Soliq munosabatlarining subyektlari.....	83
5.3. Foyda solig'i to'lovchilari tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi .....	87
5.4. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi.....	90

5.5. Yuridik shaxslarning xarajatlarini guruhlash .....	102
5.6. Foyda solig'i stavkalari.....	134
5.7. Foyda solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va to'lash tartibi.....	138
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	143
<b>VI BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I .....</b>	<b>147</b>
6.1. Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha, uning iqtisodiy mohiyati va davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o'rni .....	147
6.2. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi .....	153
6.3. Soliq solinadigan bazani aniqlash.....	174
6.4. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq stavkalari .....	182
6.5. Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.	
Soliq hisobotini taqdim etish tartibi.....	187
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	194
<b>VII BOB. AKSIZ SOLIG'I .....</b>	<b>198</b>
7.1. Aksiz solig'ining soliq tizimidagi ahamiyati va davlat budjeti daromadlarida tutgan o'rni .....	198
7.2. Aksiz solig'ining vazifalari va uning o'ziga xos xususiyatlari .....	200
7.3. Aksiz solig'i to'lovchilar tarkibi, soliqqa tortish obyekti va soliq solinadigan baza .....	203
7.4. Aksiz solig'i stavkalari va soliqdan belgilangan imtiyozlar .....	209
7.5. Aksiz solig'ini soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliq to'lash tartibi .....	214
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	216
<b>VIII BOB. YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ .....</b>	<b>219</b>
8.1. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning davlat budjeti daromadlarida tutgan o'rni.....	219

8.2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq bazasi.....	221
8.3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari, soliqdan belgilangan imtiyozlar .....	225
8.4. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi .....	226
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	229
<b>IX BOB. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘I .....</b>	<b>232</b>
9.1. Yer solig‘ining huquqiy asoslari, iqtisodiy mohiyati va davlat budgeti daromadlarida tutgan o‘rni.....	232
9.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza.....	236
9.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari va soliq stavkalri.....	239
9.4. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisobotini taqdim etish tartibi .....	246
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	249
<b>X BOB. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ .....</b>	<b>253</b>
10.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning huquqiy asoslari va uning davlat budgeti daromadlarida tutgan o‘rni .....	253
10.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar .....	254
10.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi.....	254
10.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va soliq bo‘yicha belgilangan imtiyozlar .....	258
10.5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va budgetga to‘lash tartibi .....	260

Nazorat va muhokama uchun savollar .....	263
<b>XI BOB. YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ VA FOYDALI QAZILMALARNI QAZIB OLGANLIK UCHUN MAXSUS RENTA SOLIG'I .....</b>	<b>266</b>
11.1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning huquqiy asoslari va davlat budgeti daromadlarida tutgan o'rni .....	266
11.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'inining to'lovchilari tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi .....	269
11.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'inining stavkalari .....	277
11.4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi .....	281
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	284
<b>XII BOB. IJTIMOIY SOLIQ .....</b>	<b>287</b>
12.1. Ijtimoiy soliqni to'lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi .....	287
12.2. Ijtimoiy soliq stavkalari, soliq davri, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi .....	289
12.3. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari .....	290
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	294

### **III BO'LIM. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQ TURLARI**

<b>XIII BO'B. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I .....</b>	<b>298</b>
13.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining mohiyati, soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obyekti va soliq bazasi .....	298
13.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi .....	305
13.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari .....	320
13.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq stavkalari .....	331
13.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash va ushlab qolish tartibi .....	335
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	344
<b>XIV BO'B. JISMONIY SHAXSLARNING YILLIK DAROMADLARINI DEKLARATSIYALASH TARTIBI .....</b>	<b>348</b>
14.1. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlarini deklaratsiyalashning mohiyati va tartibi .....	348
14.2. Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar tarkibi .....	350
14.3. Mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlarga soliq solish tartibi .....	351
14.4. Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish va hisoblangan soliqni to'lash tartibi .....	352
14.5. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari va norezidentining daromadlaridan ushlab qolning soliqni qaytarish tartibi .....	359
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	361

<b>XV BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN</b>	
<b>OLINADIGAN MOL-MULK SOLIG‘I .....</b>	<b>366</b>
15.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati, me‘yoriy-huquqiy asoslari va davlat budjeti daromadlaridagi salmog‘i .....	366
15.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi.....	369
15.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar va soliq stavkalari .....	371
15.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi .....	376
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	378
<b>XVI BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN</b>	
<b>OLINADIGAN YER SOLIG‘I.....</b>	<b>385</b>
16.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ining huquqiy asoslari, iqtisodiy mohiyati va davlat budjeti daromadlarida tutgan o‘rni.....	385
16.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi .....	388
16.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari .....	390
16.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari ..	392
16.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi .....	395
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	397

#### **IV BO‘LIM. MAXSUS SOLIQ REJIMLARI**

<b>XVII BOB. AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ .....</b>	<b>403</b>
17.1. Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar .....	403

17.2. Aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari .....	404
17.3. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq solish obyekti va soliq bazasi .....	409
17.4. Yakka tartibdagagi tadbirkorlarning soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	412
17.5. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari. Alovida-alohida hisob yuritish tartibi .....	414
17.6. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi .....	417
Nazorat va muhokama uchun savollar:.....	419
<b>XVIII BOB. TO'G'RIDAN TO'G'RI XUSUSIY CHET EL INVESTITSIYALARI ISHTIROKIDAGI YURIDIK SHAXSLARGA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>423</b>
18.1. To'g'ridan to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari.....	423
18.2. To'g'ridan to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi .....	424
<b>XIX BOB. MAXSUS IQTISODIY ZONALAR NING ISHTIROKCHILARIGA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>426</b>
19.1. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solish shartlari .....	426
19.2. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi .....	426

<b>XX BOB. SOLIQ TO'LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM HUDUDLARIDA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>428</b>
20.1. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari .....	428
20.2. Advokatlar hay'atlariga, advokatlik firmalariga, advokatlik byurolariga va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari .....	429
20.3. Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari .....	430
20.4. Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning foydasiga soliq solish .....	431
20.5. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari .....	432
20.6. Alohida sharoitlarda soliq majburiyatlarini bajarish.....	433
<b>IZOHLI LUG'AT.....</b>	<b>445</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>453</b>

B.K. TUXLIYEV, A.T. AGZAMOV

## SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

Toshkent – “Innovatsion rivojlanish  
nashriyot-matbaa uyi» – 2022

Muharrir	X.Zokirova
Tex. muharrir	A.Moydinov
Musavvir	A.Shushunov
Musahhih	L.Ibragimov
Sahifalovchi	Sh.Sirojiddinov

Nashriyot litsenziyasi AI № № 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907  
10.08.2020.

07.11.2022-yilda bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$  “Times New Roman» garniturasi.  
Shartli bosma tabog‘i 30,5 Nashr bosma tabog‘i 29,25. Adadi 50 nusxa.  
Buyurtma raqami № 160. Bahosi shartnomaga asosida.

“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»  
bosmaxonasida chop etildi.

100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 7-uy.  
Tel.: +998999209035 e-mail: nashr2019@inbox.ru